



YANGI O'ZBEK HIKOYALARIDA AVTOBIOGRAFIK: SHAVKAT OBIDJONNING "ANORBOG'NING BOLALARI" HIKOYASI MISOLIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934664>

Ashurova Gavhar

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

1 bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada yangi o'zbek hikoyachiligida avtobiografizmning o'rni va uning badiiy-estetik mazmuni tahlil qilinadi. Shavkat Obidjonning "Anorbog'ning bolalari" hikoyasi asosida avtobiografik tasvirlar, bolalik xotiralari, muallif obrazining ichki aks sadosi, qishloq hayoti va bolalar psixologiyasining badiiy yoritilishi tadqiq qilindi. Asardagi qahramonlar, makon va voqealar tizimi orqali avtobiografik unsurlarning poetik vazifasi ochib beriladi. Hikoyaning kompozitsion tuzilishi, til va uslub xususiyatlari, avtobiografizmning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berildi.*

TAYANCH SO'ZLAR: *Yangi o'zbek hikoyachiligi, Shavkat Obidjonning hayot yo'li, Avtobiografizm, bolalik xotirasi, badiiy talqin, hikoya janri.*

KIRISH

Mustaqillikdan keyingi o'zbek adabiyotida shaxsiy tajriba, xotira, muallifning o'z hayoti bilan bog'liq voqealarni badiiy talqin qilishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu jarayon, bir tomondan, yozuvchilarning jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga shaxsiy munosabati, boshqa tomondan, milliy xotiraga qaytishga bo'lgan intilishi bilan izohlanadi. Avtobiografizm badiiy adabiyotda muallif hayotining bevosita izlari, uning bolalik kechinmalari va o'tmish manzaralarini badiiy idrok etish tarzidir.

Yangi o'zbek hikoyachiligida avtobiografik yo'nalishning shakllanishida Shavkat Obidjon ijodi alohida o'rin tutadi. Uning ko'plab

hikoyalari turmushning tabiiy lavhalari, bolalik o'yinlari, qishloq hayotining sodda manzaralari bilan sug'orilgan. Xususan, "Anorbog'ning bolalari" hikoyasi muallifning bolalik xotiralariga tayangan holda yaratilgan bo'lib, o'zbek adabiyotida avtobiografik lirik-proza namunasi sifatida qimmatlidir. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida inson shaxsiga, uning ichki olami va hayotiy tajribasiga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, hikoya janrida muallifning shaxsiy hayoti bilan bog'liq kechinmalarni badiiy shaklda ifodalash — avtobiografizm tendensiyasida faol namoyon bo'la boshladi. Bu holat yozuvchining individual dunyoqarashini, xotiralar va hayotiy tajribasini umumlashtirilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga xizmat qiladi.



Ma'lumki ,o'zbek adabiyotida ya'ni ijodkorlarning asarlarida avtobiografizmni ko'p uchratishimiz mumkin. Avvalo, avtobiografizm tushunchasiga to'xtalsak. Avtobiografizm — bu muallif hayotida real mavjud bo'lgan voqea-hodisalar, shaxslar, makon va ruhiy holatlarning badiiy asarda qayta ishlangan, estetik jihatdan umumlashtirilgan shaklda aks etishidir. U to'g'ridan-to'g'ri hujjatli tasvir emas, balki badiiy tafakkur mahsulidir. Avtobiografizm adabiyotda faqat muallifning tarjimai holini hikoya qilish emas, balki shaxsiy tajribani badiiy umumlashtirishdan iboratdir. Ya'ni, yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqealarni yoki o'z shaxsiy hayotidan olingan ayrim unsurlarni badiiy asar orqali ifoda etadi. Keng qilib tushuntiradigan bo'lsak yozuvchi hikoya, roman yoki she'r yozar ekan, undagi qahramon, voqealar yoki hissiyotlar uning o'z hayotidan ilhomlangan bo'lishi mumkin. Bu holda asarda avtobiografik elementlar mavjud bo'ladi.

Avtobiografizm quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Asarda birinchi shaxs ("Men") orqali hikoya qilish.
2. Qahramon hayoti muallif hayotiga o'xshash bo'lishi.
3. Muallifning bolalik, oila, o'qish, muhabbat, jamiyatdagi o'rni haqida yozilishi.
4. Asarda ichki monolog, xotiralar, kechinmalarning ko'pligi.

5. Avtobiografizm — badiiy asarda qisman, bilvosita tarzda muallif hayotining aks etishi.

Yangi o'zbek hikoyalarida avtobiografizm ko'pincha: bolalik xotiralar, ijtimoiy muhit tasviri, ruhiy kechinmalar, muallif pozitsiyasining yashirin ifodasi orqali namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Shavkat Odiljon — Samarqand viloyatining Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetini tamomlagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Baxt bekati" nomli kitobi chop etilgan.

Hozirda "Kitob dunyosi" gazetasida faoliyat yuritadi. Shavkat Obidjon milliy adabiy an'alarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'rgangan, doimiy novatorlikka intilgan ijodkor. Adib asarlarida yaxshilik, insoniylik, komillikka eltuvchi g'oyalar bir so'z bilan aytganda, insonparvarlik deya atalmish bebaho tuyg'ular mujassamlashgan. Bilamizki, adabiy asarlar vaqt, zamon va makon tanlamaydi. Qachonki, kitobxon mutolaa qila boshlasagina asarlar yana yangidan yashay boshlaydi. Adibning ayniqsa, hikoyalarida har bir qahramonning ichki, kechinmalari ko'z oldimizda jonli aks etadi. Shavkat Obidjon hikoya janrida mahoratli ijod qiladi. Ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, tarixga hurmat, milliylik ifodasi badiiy talqinda o'zgacha bir pafos bilan tasvirlanadi. Hikoyada muallifning bevosita bolalik xotiralar aks etadi: bog'da o'yin o'ynash, anor uzish,



qo‘rquv ortidan yugurish, qo‘shni bolalarning xarakterlari va hokazo. Ushbu detallar voqealarning to‘qima emas, balki hayotiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Ijodkor hikoyaning boshida ota-onasining ishga ketmasdan uni erkalatishlarini juda xohlaydi. Hikoyaning davomida esa ularning harakatlarining barchasi u uchun ekanligini angladi. Hikoya nima uchun bunday deb nomlanganligini hikoyani o‘qish davomida tushunib olamiz. Hikoya mazmunan sodda bo‘lishiga qaramay, bolalikning o‘ziga xos ruhini, qo‘rquv, quvonch, yashirin qiziqishlar mujassam bo‘lgan psixologik muhitni ta’sirchan tasvirlaydi. Asar markazida bir guruh bolalarning anorbog‘dagi o‘yinlari, ular o‘ylab topgan sarguzashtlar, tasavvur va haqiqat o‘rtasidagi kontrastlar turadi. Bu kompozitsiya hikoyaning avtobiografik bo‘yoqlarini yanada kuchaytiradi.

Asarda tabiat manzarasi juda chiroyli tasvirlangan. O‘quvchi hikoyani o‘qib turib beixtiyor beg‘ubor bolaligiga qaytadi. Undagi qahramonlarning hislari bilan o‘rtoqlashadi. Ularning nazdida daryo bo‘lib ko‘ringan ariq ularga xushnudlik baxsh etar, har birining sevimli hayvonlari esa tabiatni sevishga undar edi. Hikoya qahramonini qayg‘uga solgan narsa esa kech kuz faslida anorlarning bog‘dan o‘g‘irlanishi bo‘ldi. Bundan u bilan birga ortoqlari han xafa bo‘lishdi. Bu esa bolalarning o‘g‘irlik gunoh ekanligini his qilgan holda bu og‘ir gunohga kim qo‘l urganligi haqida muhokamaga sabab bo‘ladi.

Mazkur hikoyada tasvirlangan Anorbog‘ makoni yozuvchining bolalik davriga xos muhitni eslatadi. Qahramonlarning sodda hayoti, bolalarga xos beg‘ubor qarashlar, o‘yinlar va orzular muallif xotiralarining badiiy ifodasidir. Hikoyada voqealar rivoji emas, balki xotira va holat tasviri yetakchi o‘rinni egallaydi.

Bolalar obrazi umumlashtirilgan bo‘lsa-da, ularning har biri muallifning o‘z kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. Hikoyadagi ruhiy iliqlik, ba’zan esa yo‘qotish hissi avtobiografik asos mavjudligini ko‘rsatadi. Muallif o‘z “meni”ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bolalar jamoasi orqali ifodalaydi. Hikoyada faqat shaxsiy kechinmalar emas, balki muayyan davrning ijtimoiy-ruhiy manzarasi ham aks etadi. Anorbog‘ — bu nafaqat makon, balki bolalik dunyosining ramziy timsolidir. Ushbu makon orqali muallif o‘tgan zamon bilan hozirgi davr o‘rtasida badiiy muloqot o‘rnatadi.

Avtobiografizm bu yerda individual tajribani umumxalq xotirasiga aylantirish vazifasini bajaradi. Natijada hikoya kitobxon uchun ham tanish va yaqin bo‘lib tuyuladi.

XULOSA

Muallifning ijod mahsuli bo‘lgan “Anorbog‘ning bolalari” hikoya sodda tilda yozilgan bo‘lib unda har bir kitobxon bolaligini xotirlaydi, undagi voqelarni eslaydi hamda tabiatni sevishga, yomon illatlarni qilmaslikka chorlaydi. Shavkat Obidjonning tilidagi tabiiy sodda ohang, hazil-mutoyiba, bolalarcha mantiq hikoyaning to‘g‘ridan-



to'g'ri hayotiy manbalardan kelib chiqqanini ko'rsatadi. Anor bog'lari, qizil mevalar, changli yo'laklar, bolalarning quvnoq yugurishlari — bularning barchasi hikoyaning hayotiy asosiga xizmat qiladi. Muallif voqeani bolalarcha emas, balki **bolalikni sog'ingan kattalarcha ohangda** tasvirlaydi. Bu esa hikoyani lirik-prozaga yaqinlashtiradi. Qishloqning o'ziga xos hayoti, bolalarning halollik haqidagi tasavvurlari, kattalarga bo'lgan hurmat, mehnatni ulug'lash kabi milliy qadriyatlar bolalik xotiralari orqali berilgan. Shavkat Obidjonning ushbu hikoyasi yangi o'zbek hikoyachiligidagi avtobiografizmning yorqin namunasi bo'lib, unda muallifning bolalikning beg'ubor onlari, qishloq muhiti, o'tmish kechinmalari samimiy va tabiiy yoritilgan. Hikoya realistik detal, sodda psixologik tasvir va o'ziga xos yumoristik ohang orqali avtobiografik janrning badiiy imkoniyatlarini namoyon

etadi. Asar orqali bolalikni badiiy idrok etish, milliy xotirani qayta tiklash, insonning o'z o'tmishiga mehr va hurmat bilan murojaat etishi kabi fikrlar ilgari surilgan.

Shunday qilib, "Anorbog'ning bolalari" hikoyasi o'zbek adabiyotida avtobiografik prozaning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan asar sifatida baholanadi. Bu hikoyani har bir yosh mutoola qilsa o'ziga kerakli bo'lgan xulosalarni chirarib oladi. Bu esa ung hayot yo'llarida as qotadi.

Hikoya so'nggida esa vaqt barcha narsadan ustun ekanligini qahramonlar ancha ulg'ayib hayot deb atalmish ummonga qo'shilib ketishganini o'qiymiz. Muallif yozadi : - ulg'ayganimiz sari ko'plab o'rtoqlar orttirdik lekin bolalikdagi kabi mehrli do'stlarni topa olmadim- deb xulosa qiladi.

FODALANILGAN ADABIYOTGAN RO'Y'XATI :

1. G. Sattorova. "90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi". Toshkent. 2002.
2. Karimov B. "Adabiotshunoslik metodologiyasi". T. "Muharrir" nashriyoti 2011.
3. <https://tafakkur.net/hikoyalar/shavkat-odiljon>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/shavkat-odiljon-1989v>
5. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Akademnashr, 2012.